

GLOBALLASHUV SHAROITIDA OMMAVIY MADANIYAT TRANSFORMATSIYASI JARAYONLARINING DAVLAT XAVFSIZLIGIGA TA'SIRI

*O'lmasxo'jayev Zoirxoja, IMTI ilmiy xodimi,
Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Annotatsiya. Globallashuv barcha sohalarda bo'lgani kabi ommaviy madaniyat hodisasida transformatsiya jarayonlari kechayotganligini, geosiyosiy maqsadlar shiddat bilan keskin o'zgarishi natijasida yangi tahdid va xatarlar paydo bo'layotganligi, ularni ayniqsa yoshlar ongiga halokatli tasiri, an'anaviy qadriyatlarni badnom qilishga hamda axloqqa zid g'oyalarni keng yoyishga urinishlarga qarshi samarali kurashish, jamiyatda mafkuraviy immunitetni mustahkamlash masalalariga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: Ommaviy madaniyat hodisasi, turli tahdidlar, xatarlar, transformatsiya jarayonlari, profilaktik choralar, tizimli yondashuv, geosiyosat, terrorizm, ekstremizm, radikalizm, milliy qadriyatlar, ezgulik, mehr-shafqat, insoniylik.

O'zbekiston Respublikasining jahon hamjamiyatiga jadallik bilan integratsiyasi jarayonlariga 30 yildan oshdi. O'tgan yillarda hamkorlik xalqaro aloqalari kuchayib, barcha sohada, shu jumladan, madaniyat va ma'naviyat sohasida ham harakat erkinligi yuzaga keldi. Ayniqsa, keyingi yillarda mamlakat ochiqlik va shaffoflik siyosatining e'lon qilinishi, OAV, jumladan internet tarmoqlarda ijtimoiy hayotning muayyan sohalarida jahondagi turli sohalardagi yangiliklar bilan birga o'ziga xos muammolar paydo bo'lishiga olib kelayotgan tahdid va tajovuzlar bo'lmoqda. Bu haqda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, "avvalambor, "ommaviy madaniyat" ko'rinishida kirib kelayotgan turli tahdidlar, giyohvandlik, diniy ekstremizm, missionerlik kabi balo-qazolardan yoshlarimizni asrash, ularning ta'lim-tarbiyasiga har birimiz mas'ul ekanimizni hech qachon unutmasligimiz kerak". [1] deb ta'kidladi.

Shu munosabat bilan hozirgi kunda ma'naviy va moddiy mazmundagi

hodisalarning qandaydir majmui emas, balki XIX-XX asrlar bo'sag'asida industrial jamiyatda vujudga kelgan hamda "ommaviy madaniyat" deb atalgan hodisa transformatsiyasi keltirib chiqarayotgan muammolar oldingi marraga chiqmoqda.

O'ziga xos bo'lgan bu hodisaning genezisi hamda hozirgi jamiyatdagi rolini ilmiy tadqiq etish, bozor munosabatlari shakllanayotgan sharoitda jamiyat hayotining ko'p tomonlari tijoratlashuvi, ayniqsa, badiiy va kundalik madaniyatda tuturuqsiz, bema'ni, axloqqa zid jihatlar bag'oyat kuchayib borishini rag'batlantirdi. Ko'pincha an'anaviy madaniyatlarga xos axloqiy me'yorlarga bepisandlik bilan munosabatda bo'ladigan hamda qadrini tushiradigan ommaviy madaniyat mahsuloti tarqalishi uchun sharoit aynan oldi-sotdi jarayonida yaratilgandi. Bu haqda 2012- yilda nashrdan chiqqan "Ommaviy Madaniyat" [2] deb nomlangan kitobimizda fikr yuritgandik. XXI asrning 20-yillariga kelib internet texnologiyalar yutuqlaridan samarali foydalanayotgan g'arazli kuchlar o'zlarining yaratgan yangi platformalari orqali buzg'unchi g'oyalarini shiddat bilan yo'llayotganliklari tufayli jahonda yuzaga kelayotgan salbiy tendensiyalar va xatarlar ushbu hodisani ilmiy tadqiq etishni tobora dolzarb qilib qo'ymoqda. Globallashuvning jahon bo'yicha yoshlar psixologik xususiyatlarini hisobga olib yuborayotgan yangi to'lqini O'zbekiston yoshlar sub madaniyatining rivojlanishi va transformatsiyasining quyidagi jarayonlarini o'zida aks ettirmoqda:

Ommaviy ongga saviyasi nisbatan tuban bo'lgan madaniyat mahsulotlari hamda taqlid uchun yangi namunalar havola etilayotganligi.

Masalan:

- Strimerlar - to'g'ri efirlar tashkillashtirib o'z obunachilarining har qanday istaklarini pul evaziga ijro etish;
- Geymerlar: Youtube videoxosting orqali kompyuter o'yinlariga jalb qiluvchilar;
- Anoreksiya kasalligini o'smir qizlar o'rtasida targ'ib etib ular safini kengaytirish;

- Gopniklar: ular so'kinish, haqorat so'zlar, janjal, to'palon chiqarish, magazinlarga bosqinchilik qilish, shoqollar singariko'pchilik bo'lib, o'z o'ljalariga tashlanish kabi huquqbuzarlik holatlari sodir etadilar;
- Reperlar: o'z xohishlarini she'riy ritm orqali tezijro etib, munosabatlarini izhor etadilar, giyohvand moddalar istemol qilish orqali tarki dunyo kayfiyatida bo'ladilar, o'z hayotlarini badnom qilib, 30 yoshga yetmay dunyoni tark etadilar.

Animachilar: maktabgacha tarbiya yoshidagi bolajonlarga animatsiya multplikatsiyali seriallar ishlab chiqib ular ongida o'zgarishlar qilishga harakat qilib, borgan sayin ahloqqa zid holatlarni kuchaytira boradilar, masalan, mashhur animelardan biri Hunter xHunter, keyinchalik Geney Ryodan jinoiy guruhidan bo'lib, ular yollangan qotillardan iborat, ko'p mamlakatlarda vujudga bu guruhlar o'rgimchak suratli, 4 raqamli kiyim, katakli shimlar kiyishni urf qilganlar. Dastlab bu guruh a'zolari jamiyatga xavf tug'dirmagandi, biroq keyinchalik ular jamoat joylarida begunoh odamlarga tashlanib bezorilik holatlarini sodir eta boshlaganlar.

Ushbu jinoiy guruhlar negizida xususiy harbiy kompaniyalar tuzildi. (Toshkent shahrida 2023-yil 5-mart kuni Xalqaro forumlar saroyi yaqinida 50 ga yaqin o'smirlar bezorilik uyushtirib qurolli hujum uyushtirishlari chaqiriqlar bilan chiqdilar, huquqni muhofaza qiluvchi organlari xodimlari ularning barchasi bilan profilaktik suhbatlar o'tkazdilar).

Bunday holatlarning vujudga kelishi sabablarini aniqlash, yoshlar bilan maqsadli oldini olish tadbirlar ishlab chiqishni kun tartibiga chiqardi.

Hozirgi paytda madaniyatni siyosiylashtirish bilan bog'liq murakkab jarayon sodir bo'layotganini qayd etib o'tish lozim. G'arbdagi ko'p mamlakatlar uchun bu - odatiy hodisa: Yevropa va AQShda ommaviy madaniyat davlat apparati, shuningdek, qudratli transmilliy kompaniyalar tomonidan moliyaviy va iqtisodiy jihatdan qattiq qo'llab-quvvatlanadi.

Boshqa tomondan esa, hozir jahonda murakkab mafkuraviy kurash borayotganiga bepisand qarab bo'lmaydi. To'g'ri, mafkura sohasidagi kurash

doimo mavjud bo'lgan. Lekin avvallari mafkuraviy kurash qirg'in keltiruvchi urushlarga qo'shimcha ravishda olib borilgan. Bu tarzdagi mafkura jamoatchilik fikrini hosil qilish, bir davlatning boshqa davlat hududiga qurolli bosib kirishi va h.k.ning adolatligini yoki muqarrarligini kishilar ko'z o'ngida oqlash vositasi bo'lib xizmat qilgan. Soddaroq qilib aytganda, mafkuraviy ta'sir vositasi harbiy va iqtisodiy ta'sir vositalariga qo'shimcha hisoblangan.

Biroq bizning asrimizga kelib bari o'zgardi: hozir mafkuraga faqat harbiy qudrat va iqtisodiy tazyiq potentsiali bilangina qiyoslash mumkin bo'lgan ta'sir salohiyatiga ega kuch sifatidagina emas, balki ta'sirchanligi bo'yicha barcha ta'sir vositalaridan ancha ustun turuvchi vosita sifatida ham qaraladi. Bunday holat mafkurani jahon hamjamiyati siyosiy hayotining oldingi marrasiga olib chiqadi.

Bugungi kunda mafkuraviy kurash amalda ham g'arbdan, ham sharqdan, yer yuzining barcha nuqtalarida olib borilmoqda. Ommaviy madaniyat namoyandalari ushbu kurashda reaksiya kuchlar va nosog'lom g'arazli mafkuralar tomonida turib ishtirok etmoqda.

Ushbu transformatsiya jarayonlari natijasida ular o'zining sinalgan, zamonaviy usullari bilan, aslida insoniyatning ko'p asrlik madaniy tajribasiga hech qanday aloqasi bo'lmagan qadriyatlarni abadiylashtirishga urinmoqda.

Binobarin, ommaviy madaniyat ta'sirini yetarlicha baholamaslik, uni faqat g'arb hodisasi, uni oddiy ko'ngilochar ish, "ikkinchi nav san'at", tuturuqsiz, bema'ni, bachkana hodisa deb hisoblash, bizningcha, noto'g'ri bo'ladi. "Ommaviy madaniyat"ning soddalashtirilgan modelini yaratib, biz zamonaviy madaniyatning bu qadar jiddiy hodisasiga jamiyatning e'tiborini kuchaytirish o'rniga, susaytiramiz, u jamiyat axloqiy sog'lomligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligini hisobga olmaymiz.

Bunga yuqorida takidlaganimizdek, masalan, Xitoyda 2016-yilda vujudga kelgan mashhur Tik-Tok platformasi[3], 2022-yilda Yaponiyada boshlangan "Geney Ryodan" [4] jinoiy guruhi haqidagi Huhter x Huhterga daxldor submadaniyat va boshqa g'arazli harakat, oqimlarning vujudga

kelayotganligidir.

Bizning fikrimizcha, bunday transformatsiyalar bosimi yanada kuchayadi, yangi g'arazli g'oyalar, turli o'yinlar, turli yosh kategoriyalarini qamrab olib, jumladan, hatto maktab yoshgacha bo'lgan go'daklar psixologiyasiga maqsadli ta'sir boshlanganligidan ham bilishimiz mumkin.

Shunday qilib, mazkur omillar pirovard natijada ushbu tadqiqot mavzusi umuman dolzarbligini belgilab beradi, chunki ommaviy madaniyatning nazariy hamda konkret-tarixiy tahlili davlatning unga nisbatan bosiq yaxlit siyosatini ishlab chiqishga, shuningdek, madaniyatning himoya mexanizmlarini tizimli safarbar qilishga ko'maklashadi.

Shu munosabat bilan ushbu tadqiqotda "ommaviy madaniyat" hodisasi tanqidiy ko'rib chiqiladi, uning hozirgi mafkuraviy kurashdagi roli hamda ahamiyati, jahon madaniyatiga ba'zan zohiran sezilmaydigan, halokatli ta'siri tadqiq etiladi. Binobarin, mazkur tadqiqotning yangiligi shundan iboratki, unda biz "ommaviy madaniyat" transformatsiyasi hodisasining biron-bir jihatini bilan cheklanib kolmay, uning ijtimoiy, siyosiy, tarixiy, falsafiy, madaniyatshunoslik jihatlarini ham qo'shib o'rganishga harakat qilmoqdamiz.

Shuningdek, kitobda ommaviy madaniyat bo'yicha ancha avval olib borilgan tadqiqotlarda e'tibordan chetda qolgan bir qator muammolar ham tahlil etishga harakat qilindi. Jumladan, "ommaviy madaniyat"ni ishlab chiqarish texnologiyasi, ommaviy ongga ta'sir ko'rsatishning an'anaviy vositalari hamda uning yangi, zamonaviy usullari, moslashuvchanligi, ommaviy kommunikatsiya vositalari bilan aloqa, iste'molchilik didi va instinktini ko'zlab ish olib borishi, uning ongni boshqarish xususiyatlari ko'rib chiqildi.

Bizning nazarimizda, "ommaviy madaniyat"ning bugungi kundagi transformatsiyasi tahlilining siyosiy jihatini, uning hozir butun dunyoda barcha hududlarga kirib borayotgani masalasi ham o'ta muhim ko'rinadi.

Ommaviy madaniyatning yoshlarga hamda jamiyatga halokatli ta'siri

oqibatlari chindan ham dahshatli. Bu, birinchi navbatda, oila, sadoqat, vafo, do'stlik singari an'anaviy qadriyatlarning yemirilishidir. Ommaviy madaniyat hodisalari keltirib chiqargan hamda ommaviy kommunikatsiya vositalari yordamida butun jahonga yoyilgan seksual revolyutsiya kishilar, eng avvalo, yoshlar ongiga oilaviy rishtalar va majburiyatlar domidan o'zini xalos qilgan omadli macho imijini, shuningdek, asosiy maqsadi hozirgi zamon ayoli huquqlari uchun adolatli kurash emas, balki uni an'anaviy oiladan ajratib olish, ona, beka roldan mahrum etish va h.k. bo'lgan o'ta agressiv separat feminizm g'oyalarini ham singdiradi.

Ommaviy madaniyat tomonidan targ'ib etilayotgan g'ayriaxloqiy g'oyalar G'arbiy Yevropa va AQShda vujudga kelgan ayanchli demografik vaziyatda bugunoq o'z aksini topdi. Bundan tashqari, ikkilamchi ijtimoiylashuv-ning muhim omili bo'lgan oila institutining ahamiyati pasaytirilmoqda, avlodlar vorisiyligi buzilmoqda, yoshlarning g'ayriijtimoiylashuvi ortib bormoqda, bu esa, o'z navbatida, uning jinoyat, giyohvandlik va ichki-likbozlik yo'liga kirishiga olib keladi.

Bugungi kunda ijtimoiy ongda nafaqat an'anaviy jahon dinlari ta'limotlarning, balki turli qadimiy dinlar, soxta ezoterik ta'limotlar va hokazolarning quroqlari aralashgan yangicha dindorlik deb atalmish hodisaning shakllanishi muammosi dolzarb hisoblanadi.

An'anaviy jahon dinlarining ommaviy kommunikatsiya vositalari tomonidan badniyatlik bilan ongli ravishda va faollik bilan obro'sizlantirilayotgani ushbu hodisa uchun zamin bo'lmoqda. Buning yakuni o'laroq, jamiyatda diniy identifikatsiya shiddat bilan kuchaymoqda, bunga muqobil javob o'laroq fundamental ekstremizm va radikalizm yoyilib, nufuzi kuchayib bormoqda.

Ommaviy madaniyatning halokatli ta'siri kengayib borayotgani bilan bog'liq vaziyatni tahlil etar ekanmiz, ushbu hodisa Markaziy Osiyoni ham chetlab o'tmaganini taassuf bilan aytib o'tishimiz darkor. Qulay geosiyosiy vaziyat, boy yer osti konlari hamda inson zaxiralaridan iborat yuksak iqtisodiy

salohiyat Markaziy Osiyo davlatlari, shu jumladan O'zbekistonni buzg'unchi kuchlar uchun jozibali nishonga aylantiradi. Mazkur kuchlar o'zlarining badkirdor niyatlariga erishish uchun mintaqadagi barqarorlikka putur yetkazish uchun butun choralar bilan intilishmoqda, buning uchun mafkura poligonlari ko'magidan foydalanishmoqda. Mafkura poligonlari halokatga olib boruvchi zararli mafkuralarni ijtimoiy ongga singdirish uchun foydalanadigan ishonchli hamda sinovdan o'tgan vosita ommaviy madaniyat va uning transformatsiyasi bo'lib, uning bosimiga alohida olingan davlat amalda chidam bera olmaydi.

Bugungi kunda yoshlarimiz ongiga ko'plab asrlar davomida ajdodlarimizga yashash va o'zining buyuk kelajagini qurishga yordam berib kelgan an'anaviy normalar hamda qoidalarni yemiruvchi g'ayriaxloqiy g'oyalarni tiqishtirishga urinishlar bo'layotganini kuzatishimiz mumkin.

Mavjud vaziyatda xalqimizning ko'p asrlik an'alarinigina emas, balki mafkura sohasidagi ilg'or ishlanmalarni ham o'ziga singdirgan O'zbekistonning milliy istiqlol mafkurasi mamlakatimiz fuqarolarida mafkuraviy immunitetni hosil qilishga qodirdir.

Inson beshikdaligidanoq uzluksiz tarbiya va ta'lim bilan qurshab olinsa, vatanparvarlik, Vatanga muhabbat bilan birga, bag'rikenglik, boshqa madaniyatlarga hurmatni targ'ib qiluvchi bunyodkor mafkura ruhida tarbiyalansagina, ommaviy madaniyatning salbiy ta'siriga muvaffaqiyat bilan qarshi tura oladi. Prezident Shavkat Mirziyoev "Yangi O'zbekiston strategiyasi" kitobida haqli ta'kidlaganlaridek, Mana shunday keskin vaziyatda, ulug' mutafakkirlar aytganidek, dunyoni ezgulik, mehr-shafqat, insoniylik qutqaradi.

ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021, - 277 bet.
2. G'oyibnazarov Sh.G'. Ommaviy madaniyat Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti 2012.

3. <https://ru.wikipedia.org/wiki/TikTok>
4. <https://www.pravmir.ru/chto-takoe-chvk-redan-antropolog-dmitrij-gromov-o-novoj-subkulture/>
5. Хамедов, И. "Открытость государственного управления как принцип и механизм." Жамият ва бошқарув 2 (2013).
6. Хамедов, Иса. "Некоторые вопросы дальнейшей демократизации и модернизации государственной власти и управления и административно-правового обеспечения этих процессов в Республике Узбекистан." Общество и управление 1.1 (2013): 14-25.